

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931

TDTU
TOSHKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI
1955

TDSU
TOSHKENT DAVLAT SIZDARQOSSA UNIVERSITETI
1955

TDTU
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
1955

TDF
TOSHKENT DAVLAT
AKTIVISTIKA - QURILISH UNIVERSITETI

TDT
TOSHKENT
AKTIVISTIKA - QURILISH
UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TJPI
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
<i>Quliyev Begimqul Melikovich</i>	
EKOLOGIK MIGRANTSİYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	18
<i>Bahtiyor Ismoilov Ulug'bek o'g'li, Kadirova Zulayxo Abdusalimovna</i>	
O'ZBEKİSTONDA BANK XİZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
<i>Davletova Nilufar Tulanovna</i>	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHЛИLI	30
<i>Qodirov Farrux Ergash o'g'li</i>	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
<i>Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna</i>	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	41
<i>Muminov Sherzod Kholmirzaevich</i>	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO'LLARI	46
<i>Sultanov Dilshod Normamatovich</i>	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
<i>Akhmadaliyeva Nikholakhon</i>	



IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Akhmadaliyeva Nikholakhon

Tashkent State University of Economics, PhD

ORCID iD: 0009-0001-9912-549X

nikholakhmadaliyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror rivojlanishda inson kapitalining tutgan o'rni va uning boshqa kapital shakllari bilan o'zaro aloqasi tahlil qilingan. Moliyaviy, tabiiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy va inson kapitali barqarorlikni ta'minlovchi asosiy tarkibiy qismalar sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi, qashshoqlikni kamaytiradi va ijtimoiy farovonlikni oshiradi. Shuningdek, inson kapitalining tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi, ekologik muammolarni hal qilishdagi roli va jismoniy kapital bilan sinergiyasi tahlil etiladi. Maqolada ayollar ta'limga investitsiyalarning yuqori darajadagi ijtimoiy va iqtisodiy samarasi, yuqori malakali kadrlar migratsiyasining salbiy oqibatlari ham yoritilgan. Natijada, inson kapitali barqaror rivojlanishning hal qiluvchi omili sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Inson kapitali, barqaror rivojlanish, tabiiy kapital, ijtimoiy kapital, jismoniy kapital, ta'lim va sog'liqni saqlash, innovatsion iqtisodiyot, migratsiya.

Abstract: This article analyzes the role of human capital in sustainable development and its relationship with other forms of capital. Financial, natural, productive, social and human capital are considered as the main components that ensure sustainability. The results of the study show that investments in human capital accelerate economic growth, reduce poverty and increase social well-being through education and health systems. The efficiency of human capital in using natural resources, its role in solving environmental problems and its synergy with physical capital are also analyzed. The article also highlights the high social and economic impact of investments in women's education, the negative consequences of the migration of highly qualified personnel. As a result, human capital is assessed as a decisive factor in sustainable development.

Keywords: Human capital, sustainable development, natural capital, social capital, physical capital, education and health, innovative economy, migration.

Аннотация: В данной статье анализируется роль человеческого капитала в устойчивом развитии и его взаимосвязь с другими формами капитала. Финансовый, природный, производственный, социальный и человеческий капитал рассматриваются как основные компоненты, обеспечивающие устойчивость. Результаты исследования показывают, что инвестиции в человеческий капитал ускоряют экономический рост, сокращают бедность и повышают социальное благополучие посредством систем образования и здравоохранения. Также анализируются эффективность использования природных ресурсов человеческим капиталом, его роль в решении экологических проблем и его синергия с физическим капиталом. В статье также подчеркивается высокая социально-экономическая эффективность инвестиций в образование женщин, негативные последствия миграции высококвалифицированных кадров. В результате человеческий капитал оценивается как решающий фактор устойчивого развития.

Ключевые слова: Человеческий капитал, устойчивое развитие, природный капитал, социальный капитал, физический капитал, образование и здравоохранение, инновационная экономика, миграция.

KIRISH

Inson kapitali zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Davlatlarning uzoq muddatli taraqqiyoti ko'p jihatdan inson kapitaliga qaratiladigan investitsiyalarning hajmi va sifatiga bog'liq. Xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan va innovatsion texnologiyalarga yo'naltirilgan sarmoyalar iqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim rol o'yinaydi.

Rivojlangan mamlakatlar inson kapitalini rivojlantirishda turli strategiyalarni qo'llaydilar. Skandinaviya davlatlari keng qamrovli davlat dasturlariga tayansa, AQSh va Buyuk Britaniya xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish orqali samaraga erishmoqda. Janubiy Koreya va Singapur esa innovatsion texnologiyalar hamda ilg'or ta'lim tizimlariga ustuvorlik berib, tezkor rivojlanishga erishgan. Ushbu tajribalar O'zbekiston uchun samarali model sifatida o'rganilishi mumkin.



Mamlakatimiz uchun ham inson kapitalini rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribani o'rganish dolzarbdir. Ayniqsa, Singapur modeli ta'lrim va sog'liqni saqlash sohalariga izchil va maqsadli sarmoyalar kiritish orqali qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Shu bois, O'zbekiston uchun inson kapitaliga qaratilgan davlat siyosatini samarali amalga oshirish kelajakdagi iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishning kafolatli yo'li hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitali hamda uni rivojlantirishda investitsiyalarning zaruriyati, inson kapitalini rivojlantirish orqali ishsizlikni kamaytirish, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish ko'plab iqtisodochilar tomonidan ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilgan bo'lib mazkur tadqiqotlar muhim ilmiy yondashuvlarga egadir.

S.Fisher, R. Dornbush, K. Shmalenzi inson kapitali "insonda o'z aksini topgan daromad olib kelish o'lchovidir" deb ta'riflashadi [1]. Nazariyada keltirilgan fikr natijasida shuni xulosa qilsak, inson kapitali egasi doimiy aktiv manba sifatida xizmat qiladi.

S.A.Kurganskiy ta'rifni ifodalanishini biroz o'zgartirib: "inson kapitali inson tomonidan to'plangan va investitsiya natijasida shakllangan qobiliyat va sifatlar o'lchovidir, ulardan maqsadli foydalanish mehnat samaradorligini va daromadni oshishiga olib keladi" [2] - deydi. Demak, keltirilgan taklifdan xulosa qilsak, samaradorlikka erishish hamda daromadni oshirishda inson kapitalidan maqsadli foydalanish orqali yuqori unumdorlik beradi.

I.V.Illinskiy inson kapitali ta'lim kapitali, sog'liq kapitali va madaniyat kapitalida iborat deb hisoblaydi [3]. Iqtisodchi olim inson kapitalini asosiy elementlarini o'zining qarashlarida aniq tavsiflab berdi.

Innovatsiya va bilimga asoslangan iqtisodiy rivojlanish nazariyasi 1926-yilda Yozef Alois Shumpeter tomonidan ishlab chiqilgan edi. U o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" nomli asarida "iqtisodiy o'sish" va "iqtisodiyotning rivojlanishi" tushunchalarining chegarasini ko'rsatib berdi. Y.Shumpeter fikriga ko'ra, iqtisodiyotning rivojlanishi – bu raqobatda ustunlikni va texnologik taraqqiyotni ta'minlovchi ilm-fan yutuqlarini amalga oshirishning maxsus tashkili shaklidir. Y.Shumpeter innovatsiyalarning asosiy sub'ektlari deb zarur qobiliyat va bilimlarga ega bo'lgan tadbirkorlarni ataydi [4]. Aytish mumkinki, Y. Shumpeter o'zining nazariyasida shunday g'oyani mantiqan asosladiki, unga ko'ra, iqtisodiy rivojlanish, asosini inson, xususan inson kapitali tashkil etadigan innovatsiya va novatorlik g'oyalarisiz bo'lishi mumkin emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolada ishsizlik darajasini kamaytirishda inson kapitaliga investitsiyalarni jalg etish istiqbollari, markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar miqdorini tahlil qilish, tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda qiyoslash, deduksiya, induksiya, taqqoslama tahlil, statistik tahlil keng foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inson kapitali mamlakatning iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyotida asosiy hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. Davlatlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi ko'p hollarda inson kapitaliga yo'naltiriladigan investitsiyalarning miqdori va sifati bilan belgilanadi. Avvalo, ta'lim, sog'liqni saqlash, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalar sohalariga kiritilgan sarmoyalar milliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy farovonlikni oshirish hamda jamiyatning raqobatbardoshligini kuchaytirishda hal qiluvchi rol o'yaydi.

Turli mamlakatlar inson kapitalini rivojlantirishda o'ziga xos yondashuvlardan foydalanadi. Masalan, Skandinaviya davlatlari keng ko'lamli davlat dasturlari orqali ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga e'tibor qaratgan. AQSh va Buyuk Britaniyada esa bu jarayonda xususiy sektorning faol ishtiroki rag'batlaniriladi. Sharqiy Osiyo davlatlaridan Janubiy Koreya va Singapur innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish hamda ilg'or ta'lim tizimlariga katta ustuvorlik berish orqali jadal taraqqiyotga erishgan. Bunday tajribalar O'zbekiston uchun ham samarali model sifatida tatbiq etilishi mumkin.

Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi va natijadorligi jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Nobel mukofoti sovrindori G. Bekker o'z asarlarida ta'limga sarflanadigan mablag', vaqt va energiyani davlat, jamiyat va individlar uchun eng yuqori daromad keltiruvchi investitsiya sifatida izohlaydi. Juhon banki ma'lumotlariga ko'ra, yuqori daromadli mamlakatlarda milliy boylikning deyarli 70 foizi inson kapitali hissasiga to'g'ri keladi, o'rta va past daromadli mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 40 foiz atrofida [5]. Bu esa inson kapitali salohiyati ko'plab mamlakatlarda to'liq ishga solinmaganligini ko'rsatadi va uni samarali yo'naltirish global iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan "Inson kapitali indeksi" bolalar salomatligi, ularning erta rivojlanishi, ta'lim sifati hamda kelajakdagi mehnat unumdorligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.



Mazkur indeks mamlakatlarning iqtisodiy samaradorlik darajasini, raqobatbardoshligini va kelajak avlodning imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi. Shu sababli, sog'lijni saqlash hamda ta'lif sohalariga investitsiyalarni ko'paytirish barqaror iqtisodiy o'sishning ustuvor shartlaridan biri sifatida qaraladi.

O'zbekiston sharoitida inson kapitalini rivojlantirishda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Singapur modeli ta'lif va sog'lijni saqlash sohalariga izchil va maqsadli sarmoya kiritish orqali qisqa muddat ichida yuqori natijalarga erishish mumkinligini yaqqol isbotlagan. Shu bois mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish kelgusida iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

1-jadval. Inson kapitali indeksi eng yuqori va quyi bo'lgan mamlakatlar tahlili, (2022-yil)¹

Davlatlar	Inson kapitali indeksi	Xalqaro test natijalari (ball)	Maktabga moslashtirilgan o'quv villari	Maktabda kutilayotgan o'quv yili
Singapur	0,88	575	12,8	13,9
Gonkong	0,81	549	11,9	13,5
Yaponiya	0,80	538	11,7	13,6
Janubiy Koreya	0,80	537	11,7	13,6
Kanada	0,80	534	11,7	13,7
Finlyandiya	0,80	534	11,7	13,7
Mali	0,31	307	2,6	5,2
Janubiy Sudan	0,31	336	2,5	4,7
Markaziy Afrika Respublikasi	0,29	369	2,7	4,6

Jahon banki ishlab chiqqan "Inson kapitali indeksi" mamlakatlarda bolalarning hayotiy darajasi, erta rivojlanishi, ta'lif sifati va 18 yoshgacha erishilishi mumkin bo'lgan bilimlarni jamlagan ko'rsatkichlardan iborat. Mazkur indeks aholi iqtisodiy samaradorligini, raqobatbardoshligini va o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, sog'lijni saqlash va ta'lif sohalariga investitsiya kiritish barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy sharti sifatida qaraladi.

Hayotning ilk bosqichlarida – bolalarning birinchi 1000 kuni va undan keyin 21 yoshgacha bo'lgan 7000 kunda – ta'lif va salomatlikka qaratilgan sarmoyalalar eng yuqori samarani beradi[6]. Hozirgi kunda global darajada sog'lijni saqlash va ta'lif sohalariga yo'naltirilayotgan mablag'lar yetarli emas, ayrim hollarda esa ular noto'g'ri yo'naltirilgan. Masalan, sog'lijni saqlash investitsiyalarining asosiy qismi kichik yoshdag'i bolalarga qaratilgan bo'lsa, ta'lif sarmoyalari ko'proq katta yoshdag'i bolalarga yo'naltiriladi. Aslida esa, o'smirlar salomatligi va ta'lif sifati yaxshilansa, ularning kelgusida maktabni muvaffaqiyatli tugatishi va mehnat bozorida faol ishtirok etishi osonlashadi.

Shuningdek, maktabgacha ta'limga qaratilgan sarmoyalalar bolalarda asosiy ko'nikmalarni shakllantiradi, sog'lig'i yaxshilaydi va ularning ta'lif tizimiga tayyor bo'lshini ta'minlaydi. Bu esa kelajakda o'smirlarning mehnat bozoriga moslashishini va jamiyatda faol o'r'in egallashini kafolatlaydi.


Inson kapitaliga investitsiyalar bolaning omon qolishi, erta rivojlanishi, maktab davridagi bilim olishi va o'smirlik davrida yuqori daromad olish imkoniyatlarini kuchaytiradi. Shu sababli, sog'lijni saqlash va ta'lif sohalarida aniq yo'naltirilgan va samarali sarmoyalalar talab qilinadi.

Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, Singapur va Gonkong inson kapitalini rivojlantirishda yetakchi mamlakatlar qatorida. Masalan, Singapur modeli ta'lif va sog'lijni saqlash sohalariga izchil investitsiyalar kiritish orqali qisqa muddat ichida yuqori samaraga erishish mumkinligini isbotlagan. 1960-yillardan boshlab amalga oshirilgan davlat siyosatlari, dasturlar va jarayonlar ushbu mamlakatning boshqa iqtisodlardan oldinga siljishini ta'minladi.

Inson kapitali indeksi sog'liq va ta'lif mezonlarini birlashtirgan holda yangi tug'ilgan bolaning kelajakdag'i mehnat unumdonorligini baholash imkonini beradi. Masalan, ayrim mamlakatlarda tug'ilgan bola o'z salohiyatining atigi 29 foizini ro'yobga chiqarishi mumkin, biroq kuchli ta'lif va sog'lijni saqlash tizimiga ega mamlakatlarda bu ko'rsatkich 88 foizgacha yetishi mumkin [7].

Singapur tajribasi shuni ko'rsatadi, ta'lif va sog'lijni saqlash sohalariga izchil va samarali investitsiyalar kiritish inson kapitalini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yetti asosiy omil ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ular Singapurning bugungi iqtisodiy yutuqlarini belgilab bergen.

1 www.worldbank.com – Jahon Banki guruhining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari



1-rasm. Singapur inson kapitalini rivojlantirish strategiyasining elementlari

Inson kapitali mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining hal qiluvchi omillaridan biridir. Har qanday davlatning uzoq muddatli barqaror taraqqiyoti asosan inson kapitaliga yo'naltiriladigan investitsiyalar miqdori va ularning samaradorligiga bog'liq. Xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan va innovatsion texnologiyalar sohalariga sarmoya kiritish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va jamiyat farovonligini oshirishning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga izchil va samarali investitsiya kiritish orqali jamiyatning salohiyatini yuqori darajada rivojlantirish mumkin. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yetti asosiy omil sabab bo'lgan bo'lib, ular bugungi kunda Singapurning iqtisodiy yuksalishida asosiy rol o'ynagan.

Inson kapitali zamonaviy iqtisodiy o'sishning strategik omiliga aylangan bo'lib, endi iqtisodiy resurslar ichida asosiy bo'g'in sifatida e'tirof etilmoqda. Singapur tajribasi bu jihatdan e'tiborga molik namuna bo'lib, u tabiiy resurslarsiz taraqqiyotga erishishda inson salohiyatiga tayangan[8].

Singapur 1965-yilda mustaqillikka erishganidan so'ng, mavjud tabiiy resurslarning yo'qligi uni inson kapitaliga asoslangan strategiyaga majbur qildi [8]. Bosh vazir Li Kuan Yu boshchiligidagi "Inson – yagona resursimiz" tamoyili asosida quydagilar amalga oshirildi:

- Maktabgacha ta'lindan boshlab bolalar sog'ligi va bilimi kompleks yondashuv asosida ta'minlandi;
- O'qituvchilar eng iqtidorli yoshlar orasidan saralab olinib, doimiy malaka oshirishga yo'naltirildi;
- Sog'liqni saqlash tizimi bolalar va yoshlar salomatligini ta'minlashga qaratilgan profilaktika va universal xizmatlarga asoslangan;
- Innovatsion va kognitiv kapitalning o'sishiga alohida e'tibor qaratildi.

Singapur inson kapitalining rivojlanishini baholashda xalqaro tan olingan indikatorlar asosida ishlaydi:

Singapurda ishchilarning kognitiv salohiyati (masalan, test ballari, moslashuvchanlik, kreativ fikrlash) asosida davlat strategik rejalashtirish olib boradi.

Bilimga asoslangan iqtisodiyot strategiyasi Singapurni quydagi sohalarda jahon yetakchisiga aylantirdi:

- Elektronika, biotexnologiya va sun'iy intellektga asoslangan sanoat tarmoqlari;
- Startaplar, texnoparklar va ilmiy-innovatsion inkubatorlar faoliyati;
- Oliy ta'lim va biznes sektori o'rtasida kuchli integratsiya.

Bu holat nafaqat yuqori daromadli iqtisodiyotni, balki inson kapitalining mehnat unumdarligini oshirishni ham ta'minlaydi.

Birinchidan, ma'lumotlarni yig'ish va siyosatni amalga oshirish osonroq, biroq raqamli texnologiyalar barcha mamlakatlarga ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish hamda ularni siyosat ishlab chiqish maqsadlarida ishlatalishi osonlashtirmoqda.

Ikkinchidan, mustaqillikka erishganidan Singapur o'zi va boshqalar uchun yuqori standartlarni qo'yadigan va bu standartlarga amal qilgan rahbarlar tomonidan boshqarilishi baxtiga tuyassar bo'lgan.

Uchinchidan, mahalliy inson kapitali va ishchi kuchini to'ldirish uchun Singapur ko'p sonli immigrantlarga bog'liq, ba'zilari doimiy rezidentlarga aylangan, boshqalari esa vaqtinchalik vizada. Chet ellik ishchilar va



mahalliy aholi o'rtasidagi kelishmovchiliklarni minimallashtirish bilan birga, bu ishchi kuchini integratsiya qilish va samarali ishlatish ham mohir boshqaruvni talab qildi.

To'rtinchidan, rahbariyat Markaziy Ta'minot Jamg'armasi (MTJ) orqali ichki resurslarni boshqa kam sonli davlatlar erisha olmaydigan darajada safarbar qila oldi. MTJ infratuzilma, uy-joy va boshqa muhim investitsiyalarni moliyalashtirishda muhim rol o'yndidi. Shuningdek, u Medisave orqali sog'liqni saqlashni moliyalashtirishni qo'llab-quvvatladi va fuqarolarning o'z farovonligi uchun mas'uliyatini oshirdi.

Nihoyat, Singapur har doim g'oyalar uchun ochiq va o'rganishga ishtiyoqli bo'lib, samaradorlikni oshirish va raqobatchilardan bir qadam oldinda qolish uchun innovatsiyalarga va yangi texnologiyalardan (masalan, elektron hukumat va ta'lif va sog'liqni saqlashda elektron hujjatlardan foydalanish) foydalanishga tayyor. Masalan, hukumat nomoddiy kapitalni (masalan, intellektual mulk (IM), dizayn, brendlari va firmaga xos bilimlar) va Milliy tadqiqot fondi kabi agentliklarni faol ravishda qurmoqda. Iqtisodiyotning o'sish potentsialini oshirish uchun katta miqdordagi tadqiqotlarni amalga oshirmoqda. O'sishni rag'batlantirish uchun inson kapitali, infratuzilma va innovatsiyalarga doimiy e'tibor boshqa mamlakatlar taqlid qilishi mumkin.

Singapur inson kapitaliga sarmoya kiritish yuqori foyda keltirishini va imkonsiz narsa yo'qligini ko'rsatdi. Uning namunasi boshqalarni o'z sa'y-harakatlarini ikki baravar oshirishga ilhomlantirishi kerak, Singapur modelini to'liq takrorlash uchun emas, balki uning muvaffaqiyatlari rivojlanish strategiyasini o'rganish uchundir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inson kapitali bugungi kunda milliy iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikning asosiy tayanchlaridan biri sifatida qaralmoqda. Davlatlarning uzoq muddatli taraqqiyoti ko'p jihatdan ta'lif, sog'liqni saqlash, ilm-fan va innovatsion texnologiyalar sohalariga yo'naltiriladigan investitsiyalarning hajmi va sifatiga bog'liqdir. Jahan tajribasi shuni ko'rsatadi, inson kapitaliga yo'naltirilgan izchil sarmoyalar milliy boylikning oshishi, ijtimoiy farovonlikning mustahkamlanishi va global raqobatbardoshlikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Xususan, Singapur tajribasi inson kapitaliga tizimli va maqsadli investitsiyalar orqali tabiiy resurslarga tayanmasdan ham yuqori iqtisodiy natijalarga erishish mumkinligini yaqqol namoyon etdi. Bu model ta'lif sifati, sog'liqni saqlash tizimi samaradorligi, innovatsion rivojlanish va davlat siyosatining izchilligi orqali barqaror taraqqiyotga erishishda inson resurslarining hal qiluvchi rolini isbotladi.

O'zbekiston sharoitida ham inson kapitalini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Xususan, bolalikdan boshlab sog'liqni saqlash va ta'limga qaratilgan investitsiyalarni kuchaytirish, yoshlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish va mehnat bozoriga mos kadrlarni tayyorlash orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va barqarorligi ta'minlanadi.

Umuman olganda, inson kapitaliga yo'naltirilgan samarali siyosat va investitsiyalar mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy yuksalishi, ijtimoiy barqarorlik va barqaror rivojlanishning poydevorini yaratadi. Shu bois, inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi milliy rivojlanish konsepsiolarining markazida turishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qarori.
2. "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali maxsus soni 3. Bandlik vazirligining rasmiy sayt ma'lumotlari
3. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи К. Экономикс. М.: Дело 1993. С.303
4. Курганский С.А. Человеческий капитал: сущность, структура, оценки. Иркутск. 1999.с.97.
5. Lange, Glenn-Marie; Wodon, Quentin; Carey, Kevin. The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. Washington, DC: World Bank. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/29001>
6. Bundy DAP, de Silva N, Patton GC, Schultz L, Jamison. Investment in child and adolescent health and development: key messages from Disease Control Priorities. [http://dx.doi.org/10.1016/S0140-6736\(17\)32417-0](http://dx.doi.org/10.1016/S0140-6736(17)32417-0)
7. World bank report 2020
8. Yusuf Shahid (2020), *Building Human Capital – Lessons from Singapore*. World Bank

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100